

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 26 875,0 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 26 595,6 mlrd. so'mni (103,8 %), o'rmon xo'jaligi - 191,6 mlrd. so'mni (103,2 %), baliqchilik xo'jaligi - 87,8 mlrd. so'mni (107,1 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Surxondaryo viloyatining ulushi 8,3 % ni tashkil etdi.

**26 875,0**

Surxondaryo viloyati bo'yicha qishloq,
o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm

01



26 595,6 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar

02




191,6 O'rmon xo'jaligi

03




87,8 Baliqchilik xo'jaligi

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi(%)



- O'rmon xo'jaligi
- Baliqchilik xo'jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo'jaligi sohasidagi xizmatlar

2024-yilning yanvar-sentabr yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 99,0 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 0,7 % i - o'rmon xo'jaligi, 0,3 % i - baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (4 420 mlrd. so'm) va Qumqo'rg'on tumanlarida (2 677 mlrd. so'm) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bandixon tumanlari (887 mlrd. so'm) va Termiz shahri (82 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (103,8 %) yuqori o'sish sur'atlari Oltinsoy (109,1 %), Termiz (106,2 %), Denov (104,8 %), Qumqo'rg'on (104,7 %), Jarqo'rg'on (104,6 %) va Angor tumanlarida (104,6 %) kuzatildi. Boysun (103,4 %), Sarosiyo (103,3 %), Uzun (102,9 %), Sho'rchi (102,6 %) va Bandixon (102,5 %) tumanlarida, Termiz shahrida (101,9 %), Sherobod (101,8 %), Qiziriq (101,7 %) hamda Muzrabot tumanlarida esa (101,2 %) aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 26 406,4 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 14 074,7 mlrd. so'mni (103,2 %), chorvachilik mahsulotlari - 12 331,7 mlrd. so'mni (104,4 %) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 70,0% i - dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 21,9 % i - fermer xo‘jaliklariga, 8,1 % i - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko‘ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Oltinsoy tumanida (38,1 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Boysun tumanida (91,4 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qiziriq tumanida (27,6 %) qayd etildi.


Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Termiz shahrida (0,3 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Oltinsoy tumanida (59,1 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Boysun tumanida (0,3 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 14 074,7 mlrd. soʻmni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,3 % ni tashkil qildi.

Don jami


Hajmi, ming t.



Oʼsish surʼati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi



● Fermer xoʻjaliklari

● Dehqon va tomorqa xoʻjaliklari


● Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 739,6 ming t. don (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 6,5 % ga koʻp) ishlab chiqarildi. Don ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 68,5 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishi koʻrsatilmoqda.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
don yetishtirish
hajmi, tonna**




Kartoshka


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa
xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 310,4 ming t. kartoshka (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 6,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiyligi hajmidan 93,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, tonna**




Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 929,5 ming t. sabzavot (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 5,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiyligi hajmidan 85,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
sabzavot yetishtirish
hajmi, tonna**




Poliz


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa
xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 227,4 ming t. poliz (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 82,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatilmoqda.




Surxondaryo viloyati bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna




Mevalar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 143,8 ming t. meva (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 4,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 63,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
meva yetishtirish
hajmi, tonna**




Uzum


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa
xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 74,6 ming t.uzum (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 11,1% ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 56,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Surxondaryo viloyati bo'yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 12 331,7 mlrd. soʻmni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiylajmiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 46,7 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʼyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʼrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʼpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʼldirishga imkon yaratdi.




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xoʼjaliklar tomonidan tirik vaznda 155,4 ming t. goʼsht (2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,4 % ga koʼp), 650,3 ming t. sut (5,1 % ga koʼp), 430,8 mln. dona tuxum (1,3 % ga koʼp), 1 978,0 t. jun (1,9 % ga koʼp) ishlab chiqarildi va 3 562,6 t. baliq (7,1 % ga koʼp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa
xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 155,4 ming t. go'sht (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 4,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 650,3 ming t. sut (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 5,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
ishlab chiqarilgan
sut hajmi, tonna**




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 430,8 mln. dona tuxum (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiyligi hajmidan 49,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha
olingan tuxum hajmi,
ming dona**




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa
xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3 562,1 t. (2023-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 7,1 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 58,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Surxondaryo viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligini sonidan 20,3 % i fermer xo'jaliklariga, 76,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiyligini sonidan 30,2 % i fermer xo'jaliklariga, 66,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiyligini sonidan 14,5 % i fermer xo'jaliklariga, 50,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 34,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2024-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiyl bosh soni 1 034,9 ming boshga yetdi.


2024-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 27,3 ming boshga (2,7 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,2 % idehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
yirik shoxli qoramollarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh**




2024-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 370,1 ming boshga yetdi.


2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni - 8,2 ming boshga (2,3 %) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,6 % idehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
sigirlarning umumiyl bosh soni,
ming bosh**




2024-yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 610,7 ming boshga yetdi.


2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilalar bosh soni - 59,6 ming boshga (2,3 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilalar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqaxo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 76,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh**




2024-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, otlarning umumiyl bosh soni 16 253 taga yetdi.


2024-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni – 516 taga (3,3 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 66,3 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha
otlarning umumiy bosh soni,
bosh**




2024-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 560,0 mingtaga yetdi.


2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 426,9 mingtaga (8,3 %) ko'paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 50,7 % idehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Surxondaryo viloyati bo'yicha parrandalarning umumiyl bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 76-225-65-78